



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 06 | pp. 194-199 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### TO'LOV AYLANMASINING MOHIYATINI ANIQLASHDA TO'LOV VA TO'LOV OQIMLARINING ROLI



*I.F. Sayfiddinov,*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori*

**Annotatsiya:** Maqolada to'lov aylanmasining iqtisodiy mazmuni to'lov va to'lov oqimlari kategoriyalari bilan uzviy bog'liqlikda tadqiq etiladi. To'lovning faqat pul mablag'larini o'tkazish bilan cheklanmasligi, balki pul va kredit munosabatlarining umumiy shakli sifatida namoyon bo'lishi asoslanadi. Tadqiqotda to'lovlarning gorizont va vertikal harakatlanish shakllari, tovarli va tovarsiz to'lovlar, real va ideal to'lovlar, shuningdek, to'lov oqimlarining yalpi aylanma va qoldiq o'zgarishlari orqali ifodalanishi tahlil qilindi. Natijada to'lov aylanmasi pul aylanmasining oddiy tarkibiy qismi emas, balki tovarlar qiymati, kapitallar va daromadlarning realizatsiya qilinishi, taqsimlanishi va muomalada bo'lishini ta'minlovchi pul-kredit to'lov oqimlari o'zaro bog'liqligining tashkil etilish shakli sifatida ilmiy jihatdan asoslandi.

**Kalit so'zlar:** to'lov, to'lov aylanmasi, to'lov oqimi, pul aylanmasi, kredit munosabatlari, gorizont harakat, vertikal harakat, tovarli to'lov, tovarsiz to'lov.

**Аннотация:** В статье исследуется экономическое содержание платежного оборота во взаимосвязи с категориями платежа и платежных потоков. Обосновано, что платеж не ограничивается простым перечислением денежных средств, а выступает общей формой проявления денежных и кредитных отношений. Рассмотрены горизонтальная и вертикальная формы движения платежей, товарные и нетоварные платежи, реальные и идеальные платежи, а также выражение платежных потоков через валовой оборот и изменение остатков. В результате платежный оборот раскрывается не как простая часть денежного оборота, а как форма организации взаимосвязи денежных и кредитных платежных потоков, обеспечивающих реализацию, распределение и обращение стоимости товаров, капиталов и доходов.

**Ключевые слова:** платеж, платежный оборот, платежный поток, денежный оборот, кредитные отношения, горизонтальное движение, вертикальное движение, товарные платежи, нетоварные платежи.

**Abstract:** The article examines the economic substance of payment turnover in close connection with the categories of payment and payment flows. It argues that payment should not be reduced to the transfer of money alone, but should be considered as a general form of monetary and credit relations. The study analyzes horizontal and vertical forms of payment movement, commodity and non-commodity payments, real and ideal payments, and the representation of payment flows through gross turnover and changes in balances. As a result, payment turnover is substantiated not as a simple component of money circulation, but as an organizational form of interrelated monetary and credit payment flows that ensure the realization, distribution and circulation of the value of goods, capital and income.

**Keywords:** *payment, payment turnover, payment flow, money circulation, credit relations, horizontal movement, vertical movement, commodity payment, non-commodity payment.*

## KIRISH

Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi hisob-kitob shakllarining diversifikatsiyalashuvi hamda bank-kredit munosabatlarining kengayishi to'lov aylanmasi mohiyatini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Amaliyotda to'lov ko'pincha majburiyat bo'yicha pul mablag'ining to'lanishi sifatida tushuniladi. Bunday yondashuv to'lovning tashqi ko'rinishini aks ettiradi, biroq uning iqtisodiy munosabatlar tizimidagi ichki mazmuni, pul va kredit bilan aloqasi, to'lov oqimlarini shakllantiruvchi xususiyatlari yetarli darajada ochib berilmaydi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, to'lov aylanmasi kategoriyasini faqat pul aylanmasining bir qismi sifatida talqin qilish zamonaviy hisob-kitob amaliyotini to'liq izohlab bera olmaydi. Hozirgi sharoitda to'lovlar nafaqat naqd yoki naqd pulsiz pul o'tkazmalari, balki o'zaro talablarni hisobga olish, kredit majburiyatlari, qimmatli qog'ozlar, barter va boshqa iqtisodiy instrumentlar orqali ham namoyon bo'ladi. Shu bois to'lov aylanmasi iqtisodiy munosabatlarning ancha kengroq shakli sifatida tahlil qilinishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi to'lov aylanmasi mohiyatini to'lov va to'lov oqimlari kategoriyalari orqali nazariy-metodologik jihatdan asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun to'lovning iqtisodiy kategoriya sifatidagi belgilari, uning falsafiy kategoriyalar bilan bog'liqligi, to'lov oqimlarining harakat shakllari hamda to'lov aylanmasi va pul aylanmasi o'rtasidagi nisbat tadqiq etildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi to'lov aylanmasini pulning bitta funksiyasi bilan cheklab bo'lmasligini ko'rsatish, uni pul va kredit to'lov oqimlari o'zaro bog'liqligining tashkil etilish shakli sifatida talqin qilish hamda to'lov oqimlarining gorizont va vertikal harakatlanish shakllari orqali aylanma mohiyatini yoritishdan iborat.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda to'lov aylanmasi mohiyatiga nisbatan an'anaviy yondashuv uzoq vaqt davomida ustunlik qilgan. G.A. Shvars to'lov aylanmasini pulning to'lov vositasi sifatida foydalanilishi bilan bog'liq to'lovlar majmui sifatida izohlaydi va uni pul aylanmasining bir qismi deb hisoblaydi [1]. Ushbu qarash moliya-kredit lug'atlarida ham takrorlanib, to'lov aylanmasi majburiyatlarni uzishda pulning to'lov vositasi sifatidagi harakati bilan bog'lanadi [2].

V.A. Chjen tahriri ostidagi iqtisodiy terminlar izohida ham to'lov aylanmasi naqd pulli va naqd pulsiz shakllarda amalga oshiriladigan pul aylanmasining qismi sifatida ta'riflanadi [3]. Sh.Z. Abdullaeva esa to'lov aylanmasini pulning to'lov vositasi sifatidagi harakati natijasida vujudga keladigan pul aylanmasi bilan bog'laydi [4]. Mazkur yondashuvlar to'lov aylanmasining pul funksiyalari bilan bog'liqligini ko'rsatsa-da, to'lovlarning kredit, hisobga olish, qimmatli qog'oz va boshqa instrumentlar orqali shakllanishini yetarli darajada qamrab olmaydi.

M.P. Berezina to'lov aylanmasini pul aylanmasining asosiy qismi sifatida ko'radi [5]. B.A. Rayzberg, L.Sh. Lozovskiy va E.B. Starodubtseva, shuningdek, A.B. Borisov ta'riflarida ham to'lov aylanmasi korxonalar va kompaniyalar pul aylanmasining majburiyatlarni uzishga xizmat qiluvchi qismi sifatida talqin qilinadi [6; 7]. Bu qarashlarda to'lovning amaliy hisob-

kitob jarayoni bilan bog'liq jihatlari yoritilgan bo'lsa-da, uning keng iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmuni to'liq ochilmaydi.

A.M. Kosoyning tadqiqotlari mazkur an'anaviy yondashuvdan farq qiladi. U to'lovlar majmui pulning faqat to'lov vositasi funksiyasiga asoslanmasligini, balki to'lovlarda pulning turli funksiyalari hamda kredit instrumentlari ishtirok etishini ko'rsatadi [8; 9]. V.V. Karchevskiy to'lov aylanmasini barcha pul to'lovlari majmui sifatida tavsiflaydi [10]. Biroq bunday ta'rif ham to'lov oqimlari ichidagi aloqalar va ularning iqtisodiy munosabatlar xarakterini alohida ochib bermaydi.

Shu nuqtai nazardan, to'lov aylanmasini faqat pul aylanmasining bir qismi sifatida emas, balki to'lov, to'lov oqimi va iqtisodiy munosabatlar tizimi kesishmasida shakllanadigan murakkab kategoriya sifatida tadqiq etish zarur.

*1-jadval.*

### To'lov aylanmasi mohiyatiga oid asosiy nazariy yondashuvlar<sup>1</sup>

Yondashuv	Asosiy mazmun	Ilmiy baho
<b>Pul funksiyasiga asoslangan yondashuv</b>	To'lov aylanmasi pulning to'lov vositasi funksiyasi bilan bog'liq aylanma sifatida talqin qilinadi.	Amaliy hisob-kitoblarni izohlaydi, ammo to'lovning kredit va boshqa instrumentlar orqali ifodalanishini cheklaydi.
<b>Pul aylanmasining tarkibiy qismi yondashuvi</b>	To'lov aylanmasi pul aylanmasining bir qismi sifatida ko'riladi.	An'anaviy talqin bo'lib, zamonaviy hisob-kitob vositalarining xilma-xilligini to'liq aks ettirmaydi.
<b>To'lov oqimlari yondashuvi</b>	To'lov aylanmasi iqtisodiy mazmuniga ko'ra bir xil to'lovlar oqimlarining o'zaro bog'liqligi sifatida qaraladi.	To'lovning gorizontaal va vertikal harakatini, yalpi aylanma va qoldiq o'zgarishlarini izohlash imkonini beradi.
<b>Kompleks pul-kredit yondashuvi</b>	To'lov aylanmasi pul va kredit to'lov oqimlari tashkil etilishining shakli sifatida tavsiflanadi.	Maqolada asoslanayotgan yondashuv bo'lib, tovarlar qiymati, kapital va daromadlar harakatini birgalikda izohlaydi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, kategorial yondashuv va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil to'lov, pul, kredit va to'lov aylanmasi kategoriyalarining o'zaro bog'liqligini aniqlashga xizmat qildi. Qiyosiy tahlil yordamida to'lov aylanmasiga oid turli ilmiy yondashuvlar solishtirildi va ularning kuchli hamda cheklangan jihatlari ajratildi.

<sup>1</sup> Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar tahlili asosida shakllantirilgan.

Kategorial yondashuv to'lovni iqtisodiy kategoriyasifatida harakat, makon, zamon, miqdor, sifat, sabab va oqibat, mazmun va shakl kabi umumilmiy kategoriyalar bilan bog'liq holda tahlil qilish imkonini berdi. Tizimli tahlil esa to'lov aylanmasini alohida to'lovlar yig'indisi emas, balki to'lov oqimlari va ular o'rtasidagi takrorlanuvchi iqtisodiy aloqalar majmui sifatida o'rganishga yo'naltirildi.

Tadqiqotning mantiqiy ketma-ketligi quyidagicha belgilandi: avvalo to'lovning iqtisodiy mohiyati aniqlanadi; keyin to'lovlarning gorizontaal va vertikal harakat shakllari tahlil qilinadi; undan so'ng to'lov oqimi kategoriyasiga ta'rif beriladi; yakunda esa to'lov aylanmasining umumlashtirilgan ilmiy ta'rifi shakllantiriladi.

### **NATIJALAR**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, to'lov aylanmasi mohiyatini ochish to'lov kategoriyasini aniqlashdan boshlanishi kerak. Chunki to'lov aylanmasi ikki nisbatan mustaqil tarkibiy asos — "to'lov" va "aylanma"ning mantiqiy qo'shilishidan shakllanadi. To'lovning o'zi esa pul yoki kredit majburiyatini oddiy bajarish emas, balki qiymatning bir iqtisodiy subyektdan boshqasiga o'tishi, majburiyatlarning o'zgarishi va xo'jalik aloqalarining yangilanishi jarayonidir.

Iqtisodiy kategoriya sifatida to'lov pul va kredit ko'rinishidagi moddiy shakllanmalar mavjudligining eng umumiy shakli sifatida namoyon bo'ladi. To'lov pul emissiyasi, pul funksiyalarining bajarilishi, pulning muomaladan chiqishi, kreditning vujudga kelishi, amal qilishi va qaytarilishi jarayonlarida o'z ifodasini topadi. Hatto pul zaxirada turgan holatda ham u potensial to'lovlarning belgisi sifatida qaralishi mumkin.

Har bir to'lov ikki shaklda harakatlanadi: gorizontaal va vertikal. Gorizontaal shakl to'lovchidan mablag'larning oluvchiga o'tishini bildiradi. Vertikal shakl esa to'lov kontragentlari majburiyatlari va to'lov resurslarining o'zgarishini ifodalaydi. To'lovlarning gorizontaal harakati hisob-kitoblarni bajarish va tenglashtirishga xizmat qilsa, vertikal harakat kredit va pul qoldiqlarining o'zgarishi, iqtisodiy nisbatlarning makro va mikro darajada gi siljishi bilan bog'liq bo'ladi.

To'lov oqimi ma'lum davrda bir vaqtning o'zida gorizontaal va vertikal shakllarda amal qiladigan hamda iqtisodiy mazmuniga ko'ra bir xil bo'lgan to'lovlar majmui sifatida talqin qilinishi mumkin. Ushbu ta'rifda yalpi aylanma va aylanma qoldig'ining o'zgarishi birgalikda hisobga olinadi. Demak, to'lov oqimi to'lovlarning oddiy jamlanmasi emas, balki ularning iqtisodiy mazmuni, yo'nalishi va harakat shakllari bo'yicha tizimlashgan ko'rinishidir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, to'lov aylanmasi pul aylanmasining oddiy qismi sifatida talqin qilinsa, to'lov munosabatlarining amaliy murakkabligi to'liq aks etmaydi. Tovarlar uchun hisob-kitoblarda oldindan to'lov, o'zaro talablarni hisobga olish, kredit majburiyatlari, qimmatli qog'ozlar, barter va boshqa instrumentlarning mavjudligi to'lov aylanmasining pul aylanmasidan kengroq iqtisodiy mazmunga ega ekanligini ko'rsatadi.

## 2-jadval.

**To'lov, to'lov oqimi va to'lov aylanmasi kategoriyalarining mazmuni<sup>2</sup>**

Kategoriya	Asosiy mazmun	Harakat shakli	Ahamiyati
<b>To'lov</b>	Majburiyatlar va qiymat harakatini aks ettiruvchi iqtisodiy munosabat shakli.	Gorizontal va vertikal.	Pul va kreditning amaliy amal qilishini ta'minlaydi.
<b>To'lov oqimi</b>	Ma'lum davrda iqtisodiy mazmuniga ko'ra bir xil to'lovlar majmui.	Yalpi aylanma va qoldiq o'zgarishi.	To'lovlarni tizimlashtirish va tahlil qilish imkonini beradi.
<b>To'lov aylanmasi</b>	Pul va kredit to'lov oqimlari o'zaro bog'liqligining tashkil etilish shakli.	Oqimlar ichidagi va oqimlar o'rtasidagi takrorlanuvchi aloqalar.	Tovarlar qiymati, kapital va daromadlar harakatini izohlaydi.

**MUHOKAMA**

Olingan natijalar to'lov aylanmasi mohiyatini pul aylanmasi bilan tenglashtirish yoki uni pul aylanmasining qisqartirilgan ko'rinishi sifatida talqin qilish metodologik jihatdan yetarli emasligini ko'rsatadi. To'lov aylanmasida pul muhim vosita bo'lsa-da, u barcha to'lov munosabatlarini qamrab olmaydi. Ayrim hollarda to'lovlar o'zaro talablarni hisobga olish, kredit majburiyatlarini almashtirish yoki boshqa moliyaviy instrumentlar orqali amalga oshiriladi. Shu sababli to'lov aylanmasi pulning bitta funksiyasiga emas, balki pul va kredit munosabatlarining kompleks amal qilishiga tayanadi.

To'lov oqimlarining gorizontal va vertikal harakatlanishi to'lov aylanmasining ichki dinamikasini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Gorizontal harakat to'lovlar yo'nalishini ko'rsatsa, vertikal harakat majburiyatlar, resurslar va qoldiqlardagi o'zgarishlarni yoritadi. Masalan, korxonadan bankdan olgan kreditini qaytarib, xuddi shu miqdorda yangi kredit olsa, gorizontal to'lov sodir bo'ladi, ammo vertikal o'zgarish nolga yaqinlashishi mumkin. Bunday holat to'lov aylanmasini faqat pul o'tkazmasi hajmi bilan baholash yetarli emasligini ko'rsatadi.

Real va ideal to'lovlar farqi ham to'lov aylanmasi tahlilida muhim o'rin tutadi. Ideal to'lovlar shartnomalar, rejalar va bashoratlarda ifodalanadi, real to'lovlar esa amalda bajarilgan hisob-kitoblarni bildiradi. Ideal to'lovlarning real to'lovlarga aylanish tezligi ishlab chiqarish jarayonlari, mol yetkazib beruvchilar barqarorligi, bank likvidligi va xo'jalik subyektlari o'rtasidagi ishonch darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Tovarli va tovarsiz to'lovlarning nisbati ham to'lov aylanmasi sifatini belgilaydi. Tovarli to'lovlarda pul tovar qiymatini realizatsiya qilishga xizmat qiladi. Tovarsiz to'lovlarda esa soliq, kredit, bank majburiyatlari va boshqa qayta taqsimlash munosabatlari ustun bo'ladi. Bu ikki turdagi to'lovlarning tarkibiy dinamikasi iqtisodiyotdagi moliyaviy aloqalarning barqarorligi, ishlab chiqarish va qayta taqsimlash jarayonlarining nisbatini aks ettiradi.

Shu asosda to'lov aylanmasiga quyidagi umumlashtirilgan ta'rif berish maqsadga muvofiq: tovarlar qiymati, kapitallar va daromadlarning realizatsiya qilinishi, taqsimlanishi

<sup>2</sup> Manba: muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan.

va muomalada bo'lishi sodir bo'ladigan pul va kredit to'lov oqimlari o'zaro bog'liqligining tashkil etilish shakliga to'lov aylanmasi deyiladi. Ushbu ta'rif to'lovning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmunini, to'lov oqimlari harakatini va ularning iqtisodiy munosabatlarga xizmat qilishini birgalikda aks ettiradi.

### XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, to'lov aylanmasi mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlari kategoriyalari tayanch nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. To'lov faqat majburiyat bo'yicha pul to'lash emas, balki pul va kredit munosabatlarining umumiy shakli, qiymat harakati va majburiyatlar o'zgarishini ifodalovchi iqtisodiy kategoriya sifatida qaralishi kerak.

To'lov oqimlari to'lov aylanmasining ichki tuzilmasini shakllantiradi. Ular yalpi aylanma, aylanma qoldig'i, gorizont va vertikal harakat shakllari orqali namoyon bo'ladi. Shu bois to'lov aylanmasini to'lovlarning oddiy yig'indisi sifatida emas, balki to'lov oqimlari ichidagi va ular o'rtasidagi takrorlanuvchi iqtisodiy aloqalar tizimi sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Maqolada asoslangan yondashuv to'lov aylanmasini pul aylanmasining cheklangan tarkibiy qismi sifatida emas, balki tovarlar qiymati, kapitallar va daromadlarning realizatsiya qilinishi, taqsimlanishi va muomalada bo'lishini ta'minlovchi pul-kredit to'lov oqimlari tashkil etilishining shakli sifatida izohlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv to'lov intizomi, bank hisob-kitoblari, kredit munosabatlari va makroiqtisodiy moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishda metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kelgusidagi tadqiqotlarda to'lov oqimlari tezligi, to'lovlarning kechikishi, flout hodisasi, raqamli to'lov instrumentlari va to'lov aylanmasining iqtisodiy o'sishga ta'siri empirik ma'lumotlar asosida chuqurroq o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva, Sh. Z. (2007). Pul, kredit va banklar. Toshkent: Iqtisod-moliya.
2. Berezina, M. P. (1997). Beznalichnye raschyoty v ekonomike Rossii: Analiz praktiki. Moskva: AO «Konsaltbankir».
3. Borisov, A. B. (2003). Bolshoy ekonomicheskij slovar. Moskva: Knizhnyy mir.
4. Chjen, V. A. (Ed.). (1995). Yazyk biznesa. Terminy. Toshkent: IPK «Shark».
5. Finansovo-kreditnyy slovar (Vol. 2). (1986). Moskva: Finansy i statistika.
6. Finansy Rossii: Statisticheskij sbornik. (2007). Moskva.
7. Kosoy, A. M. (1978). Upravlenie beznalichnym platezhnym oborotom. Moskva: Finansy.
8. Kosoy, A. M. (2005). Platezhnyy oborot: Issledovanie i rekomendatsii. Moskva: Finansy i statistika.
9. Poliak, G. B. (Ed.). (2001). Finansy. Denezhnoye obrashcheniye. Kredit: Uchebnik. Moskva: UNITI-DANA.
10. Rayzberg, B. A., Lozovskiy, L. Sh., & Starodubtseva, E. B. (2000). Sovremennyy ekonomicheskij slovar. Moskva: Infra-M.
11. Shvars, G. A. (1963). Beznalichnyy oborot i kredit v SSSR. Moskva: Gosfinizdat.

Copyright: ©2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

